



UDK 323.1(575.1)

Sevara YUSUPOVA,

PhD, dotsent,

Andijon davlat pedagogika instituti, Tarix kafedrasini mudiri, Andijon, O‘zbekiston

E-mail: yusupovasevara1818@gmail.com

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, tarix fanlari doktori D.Bobojonova taqrizi asosida

THE STUDY OF TOPICAL ISSUES OF NATIONAL MINORITIES DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

This article examines the state policy and scientific research aimed at ensuring the rights of national minorities residing in Uzbekistan after gaining independence, as well as the preservation and development of their culture and traditions.

Keywords: Republic of Uzbekistan, national minorities, scientific research, national cultural centers, tolerance.

ИЗУЧЕНИЕ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ В СФЕРЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ МЕНЬШИНСТВ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируются государственная политика и научные исследования, направленные на обеспечение прав национальных меньшинств, проживающих в Узбекистане после обретения независимости, а также сохранение и развитие их культуры и традиций.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, национальные меньшинства, научные исследования, национально-культурные центры, толерантность.

MUSTAQILLIK YILLARIDA KAM SONLI MILLATLAR MASALASIDAGI DOLZARB MUAMMOLARNING O‘RGANILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatda istiqomat qiluvchi kam sonli millatlar va elatlarning huquqlarini ta‘minlash, ularning madaniyati va an‘analarini asrab-avaylash borasidagi davlat siyosati hamda ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, kam sonli millatlar, ilmiy izlanishlar, milliy-madaniy markazlar, tolerantlik.

Kirish. O‘zbekiston qadimdan turli millat va elatlar chorrahasida joylashgan, sivilizatsiyalar, madaniyatlar va etnik guruhlar o‘zaro muloqot va hamkorlikda yashab kelgan ko‘p millatli hudud sifatida shakllangan. Bugungi kunda mamlakat hududida 130 dan ortiq millat va elat vakillarining istiqomat qilishi mazkur zaminda tarixan shakllangan etnomadaniy xilma-xillikning yaqqol ifodasidir. Ushbu demografik va ijtimoiy-madaniy rang-baranglik jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo‘lib, millatlararo hamjihatlik va o‘zaro hurmat tamoyillarini ta‘minlashni davlat siyosatining ustuvor vazifalari qatoriga qo‘yadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O‘zbekistonda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va fuqarolik birdamligini mustahkamlash davlat siyosatining strategik yo‘nalishi sifatida belgilab olindi. Chunki ijtimoiy barqarorlik va siyosiy taraqqiyot ko‘p jihatdan jamiyatdagi turli etnik guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va hamkorlik darajasiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, etnoslararo munosabatlarni ilmiy asosda tartibga solish, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash va barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish davlat boshqaruvining ustuvor vazifasiga aylandi.

Sobiq ittifoq davrida amal qilgan “millatlarning qo‘shilib ketishi”, “yagona sovet xalqi” “kishilar birligining yangi ijtimoiy, baynalmilal shakli – sovet xalqi shakllanishi”[7] kabi mafkuraviy konsepsiyalar esa milliy o‘zlikni asrash va rivojlantirish jarayonlarini sun‘iy ravishda cheklab qo‘ygan, ayrim kam sonli millat va elatlarning tili, madaniyati va an‘analarining susayishiga, ayrim hollarda esa ularning huquq va manfaatlarining kamsitilishiga sabab bo‘lgan edi. Bunday mafkuraviy yondashuvlar etnik xilma-

xillikni boyluk sifatida emas, balki bir xillikka intilish nuqtai nazaridan baholaganligi bilan ham ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi.

Shu bois mustaqillik yillarida mazkur masalalarni konseptual va amaliy jihatdan qayta ko‘rib chiqish, etnik siyosatni demokratik tamoyillar asosida shakllantirish hamda millatlararo munosabatlarning yangi, inklyuziv va bag‘rikeng modelini yaratish zarurati vujudga keldi. Bu jarayonda milliy qonunchilik tizimi takomillashtirilib, Konstitutsiya va sohaviy qonunlar orqali barcha millat va elat vakillarining teng huquqliligi, ona tili, madaniyati va urf-odatlarini saqlash hamda rivojlantirish huquqlari huquqiy jihatdan kafolatlandi.

Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarga ham alohida e‘tibor qaratildi. Etnosotsiologiya, etnopolitolo-giya, tarix va madaniyatshunoslik sohalaridagi olimlar tomonidan millatlararo munosabatlarning nazariy asoslari, ijtimoiy-psixologik omillari hamda ularni boshqarish mexanizmlari yuzasidan ko‘plab ilmiy-amaliy izlanishlar olib borildi. Ushbu tadqiqotlar natijasida jamiyatda barqarorlikni ta‘minlash, etnik ziddiyatlarning oldini olish va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijada O‘zbekistonda etnomadaniy xilma-xillikni saqlash va rivojlantirish, millatlararo totuvlikni ta‘minlash hamda umumfuqarolik identifikatsiyasini mustahkamlashga qaratilgan kompleks davlat siyosati shakllandi. Bugungi kunda mazkur siyosat mamlakatda tinchlik, barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlikni ta‘minlashning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O‘zbekiston hududida millatlararo munosabatlar va kam sonli millatlar

masalasi turli davrlarda olimlar tomonidan izchil o'rganib kelinmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda asosan tarixiy-demografik jarayonlar, etnik tarkibning shakllanishi hamda ayrim diasporalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tahlil qilingan. Xususan, Turkiston general-gubernatorligi davrida tub joyli bo'lmagan aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti B.Xaynazarov tomonidan tadqiq etilib, migratsion jarayonlar va ijtimoiy tarkib dinamikasi manbalar asosida yoritilgan. Turkiston xalqlarining o'zaro aloqalari, jumladan tatarlar hamda Volgabo'yi va Uraloldi xalqlari bilan munosabatlar masalasi A.Rasulov ilmiy izlanishlarida tahlil qilinib, etnomadaniy hamkorlik an'analari tarixiy nuqtai nazardan asoslab berilgan.

1918–1990-yillarda O'zbekistonda kam sonli millatlar holati va rivojlanish xususiyatlari K.D.Saipova tomonidan o'rganilgan. XX asrning 80-yillarida O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma'naviy jarayonlar masalasi X.Yunusova tomonidan tadqiq etilib, unda jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning etnik munosabatlarga ta'siri hamda ma'naviy muhit dinamikasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Mazkur izlanishlar sovet davrining so'nggi bosqichidagi millatlararo jarayonlarni anglashda muhim manba hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida millatlararo munosabatlar masalasi yangi metodologik yondashuvlar asosida kengroq ko'lamda o'rganila boshlandi. Tadqiqotlarda obyektivlik, tarixiy xolislik va insonparvarlik tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etdi. Professor R.H. Murtazayeva bag'rikenglikning O'zbekistonga xos jihatlarni nazariy asoslab, uning tarixiy ildizlarini Avesto davridan zamonaviy taraqqiyot bosqichlarigacha bo'lgan jarayonlar bilan bog'laydi [5] hamda tolerantlikni jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin etadi.

Shuningdek, D.B. Bobojonova va S.N. Yusupova tadqiqotlarida etno-demografik hamda migratsiya jarayonlari kompleks tahlil qilinib, ularning millatlararo munosabatlarga ta'siri ochib berilgan. Alohida diasporalar faoliyati ham mustaqillik davri tadqiqotlarining muhim yo'nalishiga aylandi. Jumladan, nemis diasporasi D.M. Inoyatova, grek diasporasi J.M. Abdurahmonova, uyg'ur diasporasi esa B.B. Xaynazarov va G. Valixonovalar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Kam sonli millatlarning milliy o'zligini saqlash va rivojlantirishda milliy-madaniy markazlarning o'rni esa X.X. Xusanov tomonidan o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda diasporalar faoliyatining madaniy merosni tiklash, milliy an'analarni asrab-avaylash hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni alohida ta'kidlanadi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turli davrlarda kam sonli millatlar masalasi siyosiy, tarixiy, va demografik jihatlardan kompleks tarzda tadqiq etilgan. Biroq globallashuv sharoitida millatlararo munosabatlarning yangi qirralari yuzaga kelayotgani mazkur sohada doimiy monitoring va yangi ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Mazkur muammoni o'rganishda quyidagi metodlardan foydalanilgan: qiyosiy tahlil, statistik tahlil, huquqiy hujjatlar monitoringi.

Tahlil va Natijalar. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kam sonli millatlar masalasini o'rganishga nisbatan yondashuvlar tubdan o'zgardi. Agar sobiq tuzum davrida etnik xilma-xillik assimilyatsiya siyosati doirasida talqin etilgan bo'lsa, yangi davrda u jamiyat taraqqiyotining ijobiy va tabiiy omili sifatida baholana boshladi. Millatlararo munosabatlarida tenglik, bag'rikenglik va fuqarolik birdamligi tamoyillarining ustuvorligi "O'zbekiston – umumiy uyimiz" g'oyasi orqali amaliy mazmun kasb etdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat siyosatining huquqiy asoslari bilan amaliy institutsional mexanizmlar o'rtasida o'zaro uyg'unlik shakllangan. Konstitutsiyaviy normalar orqali tenglik va diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik

prinsiplari mustahkamlangan bo'lsa, milliy-madaniy markazlar faoliyati bu tamoyillarning real ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishiga xizmat qilmoqda. Bu holat millatlararo munosabatlarni faqat deklarativ darajada emas, balki institutsional boshqaruv obyekti sifatida qaralayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar evolyutsiyasi ham e'tiborga loyiqdir. Dastlab tarixiy-demografik tavsif ustuvor bo'lgan bo'lsa, mustaqillik davrida tolerantlik, fuqarolik birdamligi, etnomadaniy identifikatsiya kabi kategoriyalar nazariy jihatdan chuqurlashtirildi. Xususan, bag'rikenglik tushunchasining ildizlarini eng qadimgi davrlargacha davrigacha olib borilishi millatlararo munosabatlarni milliy tarixiy meros bilan bog'lash imkonini berdi. Bu esa etnik siyosatning faqat zamonaviy ehtiyojlardan kelib chiqmasdan, balki tarixiy-madaniy an'analarga tayangan holda shakllantirilayotganini ko'rsatadi.

Biroq globallashuv jarayonlari millatlararo munosabatlar mazmuniga yangi omillarni olib kirmoqda. Axborot makonining kengayishi, migratsiya jarayonlarining jadallashuvi va "ommaviy madaniyat" ta'siri etnik identifikatsiya masalasini yanada murakkablashtiradi. Ayniqsa, yosh avlodning madaniy o'zlikni idrok etish jarayonida global va milliy qadriyatlar o'rtasidagi nisbat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, milliy-madaniy markazlar faoliyatini zamonaviy kommunikatsion vositalar bilan integratsiya qilish, ularning ijtimoiy ta'sir doirasini kengaytirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Shuningdek, ayrim millat vakillarining repatriatsiyasi va tashqi migratsiya oqimlari etno-demografik tarkib dinamikasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonlar millatlararo munosabatlar barqarorligiga jiddiy tahdid tug'dirmayotgan bo'lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda ijtimoiy integratsiya mexanizmlarini yanada takomillashtirishni talab etadi. Ayniqsa, hududiy kesimda etnik tarkibning o'zgarishi mahalliy ijtimoiy infratuzilma, ta'lim va madaniy siyosatni moslashtirish zaruratini yuzaga keltirishi mumkin.

Umuman olganda, O'zbekistonda shakllangan model millatlararo totuvlikni saqlash va etnomadaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlashning muvozanatli tizimi sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq zamonaviy sharoitda ushbu tizimni faqat huquqiy normalar bilan cheklab qo'yish yetarli emas. Uni ijtimoiy psixologik, madaniy va axborot xavfsizligi omillari bilan uyg'un holda rivojlantirish, ilmiy monitoringni doimiy asosda olib borish va yangi tadqiqotlar bilan boyitish zarur.

Shu bois, kelgusida millatlararo munosabatlarni boshqarish masalasida ko'p darajali (davlat–fuqarolik jamiyati–ta'lim tizimi) hamkorlik modelini yanada mustahkamlash, yoshlarni tolerantlik va madaniy muvofiq ruhida tarbiyalash hamda etnomadaniy merosni raqamli makonda targ'ib qilish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Olib borilgan tadqiqotlar va manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda kam sonli millatlar masalasini hal etish bo'yicha tizimli va izchil davlat siyosati shakllantirilib, qator amaliy natijalarga erishildi.

Eng muhim erishilgan yutuq sifatida shuni ta'kidlash joizki, huquqiy jihatdan barcha fuqarolarning tengligini ta'minlovchi mustahkam kafolatlar yaratildi. Jumladan, Konstitutsiyaning 8- va 19-moddalarida fuqarolarning millati, tili va dinidan qat'i nazar teng huquqliligi belgilab qo'yildi. Shuningdek, 4-moddaga muvofiq barcha millat va elatlarning o'z ona tili, urf-odat va an'analarni saqlash hamda rivojlantirishi uchun zarur shart-sharoitlar kafolatlandi. Bu esa millatlararo munosabatlarning huquqiy poydevorini mustahkamladi [1].

O'zbekiston 1995 yil 16 noyabrda YUNESKOning "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi"ga qo'shildi [3]. Bu qo'shilish davlatning millatlararo munosabatlar siyosatida

bag'rikenglik, tinchlik va hamjihatlikni rag'batlantirishda muhim qadam bo'ldi. Deklaratsiya prinsiplari ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va jamiyatdagi ijtimoiy hamkorlik sohalarida O'zbekistonda barqaror rivojlanish hamda barcha millat va diniy guruhlar uchun teng huquqlar ta'minlanishiga zamin yaratdi.

Ikkinchidan, mazkur sohada samarali institutsional tizim shakllantirildi. 1992 yilda Respublika baynalmilal madaniyat markazining tashkil etilishi va uning hozirda 140 ga yaqin milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirib kelayotgani etnik guruhlarning madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmoqda. 2017 yilda Vazirlar Mahkamasi huzurida maxsus Qo'mitaning tashkil etilishi esa davlat siyosati va jamoat institutlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirdi [2].

Uchinchidan, ta'lim va ommaviy axborot vositalari orqali etnomadaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni 7 tilda tashkil etilgan, gazeta va jurnallar esa 10 dan ortiq tilda nashr etilmoqda. Bu holat kam sonli millatlarning til va madaniyatini saqlashda muhim ijtimoiy mexanizm sifatida xizmat qilmoqda [4].

To'rtinchidan, etno-demografik jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida ayrim millatlarning (rus, nemis, grek, yahudiy, qrim tatarlar va boshqalar) repatriatsiyasi faollashgan bo'lsa-da, mamlakatda yashab qolayotgan vakillar uchun madaniy, ta'limiy va huquqiy imkoniyatlar to'liq saqlanib qolgan. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va millatlararo hamjihatlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, qayd etilgan natijalar mamlakatda etnomadaniy xilma-xillikni saqlash va fuqarolik birdamligini mustahkamlashga qaratilgan kompleks mexanizmlar samarali faoliyat yuritayotganini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda kam sonli millatlar masalasiga oid davlat siyosati va ilmiy yondashuvlar yangi, demokratik va inklyuziv tamoyillar asosida shakllantirildi. Millatlararo totuvlik va bag'rikenglik jamiyat barqarorligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning muhim poydevori sifatida qaror topdi.

Erishilgan eng katta yutuq – mamlakatda tinchlik, hamjihatlik va o'zaro hurmat muhitining shakllanganidir. Bu esa etnik ziddiyatlarning oldini olish, fuqarolik birdamligini mustahkamlash va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida millatlararo munosabatlarning yangi chaqiriqlari doimiy ilmiy monitoring, tahlil va innovatsion yondashuvlarni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, yoshlarni bag'rikenglik, madaniy mulqot va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jumladan, oliy ta'lim muassasalarida "Millatlararo munosabatlar va tolerantlik" fanini o'qitish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish hamda milliy-madaniy merosni asrashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, etnomadaniy xilma-xillikni asrash va millatlararo totuvlikni ta'minlashga qaratilgan izchil siyosat O'zbekistonning barqaror rivojlanishi va milliy xavfsizligining muhim omili bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent – O'zbekiston, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5046-son Farmoni.
3. UNESCO. Declaration of Principles on Tolerance. Paris, 1995. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000109590>. "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi" (YUNESKO, 1995 yil 16 noyabr).
4. Муртазаева Р.Х. "Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане". Тошкент: Ўзбекистон, 2010.
5. Murtazayeva R.H. "O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik" (Darslik). Toshkent, 2019.
6. Yusupova S.N. and others. Policy of inter-national peace: the experience of Uzbekistan and a comparative analysis with Central Asian countries. International Journal of Interdisciplinary Cultural Studies. ISSN: 2327-008X (Print), ISSN: 2327-2554 (Online). Volume 20, Issue 2, 2025. <https://cgscopus.com/index.php/journals>.
7. Yunusova X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma'naviy jarayonlar. Toshkent. "Abu-matbuot konsalt" 2009